

“JIZZAX- ZOMIN” AVTOMOBIL YO‘LLINING SIFAT KO‘RSATGICHINI BAHOLASH

Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich

Jizzax politexnika instituti assistant

Kamolov Ulug‘bek Shokir o‘g‘li

Jizzax politexnika institute talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola bugungi kunda avtomobil yo‘llarining tarmoqlari va ulardan foydalanishda vujudga keladigan muammolar, ularga qo‘yiladigan talablar, harakat miqdori, xarakat tarkibi, harakat tezligi, harakat zichligi va ularning echimlari to‘g‘risida keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: yo‘l, harakat, avtomobil, tezlik, transport, texnik, ekspluatatsiya, xizmat, qoplama.

Avtomobil yo‘li tarmoqlari har qanday viloyat yoki tumanning yo‘l tarmoqlari deb, shu joydagi aholi yashaydigan nuqtalarni birlashtiruvchi, undagi xalq xo‘jalik, yuk tayyorlovchi va qabul qiluvchilarni xarakat vositalari bilan ta‘minlovchi tarmoqlarga aytiladi. Xar qanday avtomobil yo‘l tarmog‘i asosiy yuk va yo‘lovchilarni tashishni ko‘zlab loyihalaniishi shart. Yo‘l tarmog‘ini qanchalik ko‘p foizini xalqaro va respublika ahamiyatidagi yo‘llar tashkil qilsa, shu mamlakat tez iqtisodini yaxshilay oladi. Yo‘lning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, shuncha ko‘p avtomobil undan harakatlanadi va unga qo‘yiladigan talablar ham shuncha oshadi.

Hozirgi zamon avtomobil yo‘llariga qo‘yilgan talab. Hozirgi avtomobil yo‘llariga qo‘yilgan talablar juda ko‘p bo‘lib, ular bilan yil davomida tanishib chiqamiz. Ulardan asosiylari quyidagilar:

- 1). Hisobiy tezlikni ta‘minlash;
- 2). Har qanday ob-xavo sharoitida yuk va yo‘lovchini manzilga vaqtida yetkazish;
- 3). Harakatning qulayligini, xavfsizligini va iqtisodiyligini ta‘minlash;
- 4). Sarflangan harajatlarni oqlab, xalq xo‘jaligiga foyda keltirish.

Yo‘lning transport-foydalanish ko‘rsatgichlari.

Yo‘lning transport-foydalanish ko‘rsatgichlari deyilganda, quyidagilar ko‘zda tutiladi:

Harakat miqdori, xarakat tarkibi, harakat tezligi, harakat zichligi, yetib borish imkoniyati (yetib borish vaqti va tezligi), yo‘lning o‘tkazuvchanlik qobiliyati, yo‘lning

mustahkamligi, yo‘l poyi va to‘shamasi mustahkamligi, yo‘l qoplamasi ravonligi va tishlanish sifati, qoplamaning g‘adir-budirligi, yo‘l to‘shamasi ishlash qobiliyati, yo‘l xizmat muddati va boshqalar.

Avtomobil yo‘lining texnik darajasi – yo‘llarning va uning muxandislik inshootlarining geometrik parametrlari va tavsifini doimiy (ekspluatatsiya jarayonida o‘zgarmaydigan yoki faqat qayta qurish va ta‘minlashda o‘zgaradigan) me‘yoriy talablarga to‘g‘ri kelish darajasi;

- Avtomobil yo‘lining foydalanish xolati – yo‘llarning tavsifi va ekspluatatsiya jarayonida transport vositalarining, iqlim sharoitlarining ta‘siri va saqlash darajasi, muhandislik jihozlari va jihozlanishlarini bo‘yicha o‘zgaruvchan parametrlarini me‘yoriy talablarga to‘g‘ri kelish darajasi;

- Avtomobil yo‘lining transport-foydalanish holati – tekshirish va baholash paytidagi yo‘lning texnik darajasi va foydalanish holatining parametrlari va tavsiflarining amaldagi majmuaviy qiymatlari. Avtomobil yo‘lining transport-foydalanish sifati yoki tavsifi – yo‘lning muhandislik inshoot sifatidagi, yo‘l to‘shamasining mustahkamligi, tekisligi, g‘adir-budurligi va qoplamaning ilashish sifati, yer to‘shamasining turg‘unligi va boshqalarni o‘z ichiga olgan ishonchligi va ishlash qobiliyatining tavsifi.

- Yo‘lning iste‘mol xususiyatlari – bu yo‘lning asosiy - transport-foydalanish ko‘rsatgichlari bo‘lib, ularning eng ahamiyatlilariga avtomobillarning unumdorligiga, tashish tannarxiga, yonilg‘i sarfiga, yuk va yo‘lovchilarni yetkazish vaqtiga va avtomobil transporti va avtomobil yo‘llarining birgalikdagi ishlarining boshqa tavsiflariga ta‘sir qiluvchi ta‘sir ko‘rsatuvchi tezlikni, harakat qulayligi va xavfsizligini, o‘qlarga ruxsat etilgan yuklama va avtomobillarning umumiy og‘irligini (massasini) ta‘minlovchilar kiritiladi. Avtomobil yo‘lining sifati–mazkur darajadagi yo‘l iste‘mol xususiyatlarini ta‘minlovchi texnik daraja, foydalanish xolat, muxandis jihozlari va jihozlanishi, hamda saqlash darajasi kabi barcha majmuaviy ko‘rsatgichlarini me‘yoriy talablarga mos kelish darajasi.

- - hisobdagi tezlikni ta‘minlovchi foydalanish koeffitsient – bitta yengil avtomobilning ta‘minlangan yo‘lda harakat xavfsizligi, yoki avtomobilning har bir yo‘l uchastkasi bilan o‘zaro ta‘siri sharoitidagi maksimal tezligini ($V_{f \max}$), mazkur darajadagi yo‘l va joyning rel‘efi uchun hisobiy tezlikka (V_r) bo‘lgan nisbati:

- $$K_{XT} = \frac{V_{f \max}}{V_p^b}$$

- hisobiy tezlikni ta‘minlanish koeffitsienti – $V_{f \max}$ ning negizoviy hisobiy tezlikka (V_p^b) nisbati:

$$K_{XT} = \frac{V_{f \max}^0}{V_p^b} C$$

- Negizoviy xisobiy tezlik qilib $V_p^b = 120$ km/s olingan.
- bunda:

$$K_{XT} = \frac{V_{f \max}}{120}$$

Amaliy xisoblarda hisobiy tezlikni ta'minlanish koeffitsientidan foydalanish qulayroq. ko'rsatilgan koeffitsientlarning nisbatlari quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$K_{FXi} = \frac{120 \times K_{rsi}}{V_{ri}}, \quad K_{XTi} = \frac{V_{pi} \times V_{pccc}}{120}$$

bu yerda: V_{ri} va K_{fxti} – mazkur darajadagi yo'l uchun mos ravishda xisobiy va hisobiy tezlikni ta'minlash foydalanish koeffitsienti.

Avtomobil yo'llarini transport-foydalanish sifatlarini 4 turkumga ajratishimiz mumkin: avtomobil xarakatiga bog'liq bo'lgan; yo'l sharoitiga bog'liq bo'lgan; harakat xavfsizligiga; harakat iqtisodiyligiga.

Avtomobil harakatiga bog'liq bo'lgan transport-foydalanish sifatlariga quyidagi ko'rsatkichlar misol bo'ladi: harakat jadalligi, harakat tarkibi, harakat hajmi, yo'lning o'tkazuvchanlik va tashuvchanlik qobiliyati, harakat tezligi va harakat vaqti va boshqalar. Yo'l sharoitiga bog'liq bo'lgan transport-foydalanish ko'rsatkichlariga quyidagilar misol bo'ladi: yo'l to'shamasi va yo'l poyi mustahkamligi, qoplama ravonligi va g'adir budurligi, qoplamni g'ildirak bilan tishlashishi va qoplama yemirilishga bardoshligi. Harakat xavfsizligiga bog'liq transport-foydalanish ko'rsatkichlariga yo'lning ishonchligi, xizmat muddati, nisbiy avariyalik, avariyalik va tezlik koeffitsientlari va ko'rinish masofasi misol bo'ladi. Harakatning iqtisodiyligiga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar bular yuk tashish tan narxi, yo'l-transport hodisasidan keladigan zarar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Yo'l harakati qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 12.04.2022 yildagi 172-son qarori
2. "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, №PQ-3124, 11.07.2017 y.
3. O'zbekiston Respublikasi «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 2013-yil 10 aprel, O'RQ-348-son qarori
4. A.A.Akilov, Q.A.Karimova, Sh.Sh.Rizayev «Yo'l harakati qoidalariga suratli sharhlar» T.: 2020.
5. N.F.Muxitdinov, M.B.Kalonov, B.X.Tursunboyev «Yo'l harakati qoidalariga suratli sharhlar va amaliy tavsiyalar» T.: 2017.